

SHARQ MUZEYLARIDA ME'MORIY TAFAKKURNING YANGI QIRRALARI

**D.Sh.Saipova**

Dizayn kafedrası katta o'qituvchisi,
2-bosqich mustaqil izlanuvchi
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn
instituti

O.S.Kasimov

Dizayn kafedrası professori, s.f.f.d. (PhD), dotsent
Email: dilnozasaipova1984@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V5-05-11>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Imom Al-Buxoriy yodgorlik majmuasi-muzeyining ichki kompozitsion badiiy yechimida yulduzsimon shakllardan foydalanish tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida Eronning Qum shahridagi Islomiy muzey bilan mazkur bezak elementlari va ularning badiiy ifodasi o'xshashligi ko'rib chiqiladi. Maqola islomiy me'morchilikda geometrik naqshlarning ramziy mazmuni, ularning muqaddaslik va ilohiy tartibni ifodalashdagi o'rni hamda ikki inshootning estetik-falsafiy jihatlari ilmiy yondashuv asosida tahlil etilgan. Natijada, naqshlarning me'moriy kompozitsiyadagi ahamiyati va Sharq islomiy san'atidagi o'ziga xosligi yoritiladi.

Kalit so'zlar: Interaktivl, badiiy ifoda, Simmetriya, kompozitsion o'xshashliklar, estetik uyg'unlik.

Аннотация: В статье анализируется использование звездообразных форм в композиционно-художественном решении интерьера Мемориального комплекса-музея Имама Аль-Бухари. В исследовании изучается сходство этих декоративных элементов и их художественного выражения с Исламским музеем в Куме, Иран. В статье анализируется символическое значение геометрических узоров в исламской архитектуре, их роль в выражении святости и божественного порядка, а также эстетические и философские аспекты двух сооружений на основе научного подхода. В результате подчеркивается важность узоров в архитектурной композиции и их уникальность в восточном исламском искусстве.

Ключевые слова: Интерактивность, художественное выражение, симметрия, композиционное сходство, эстетическая гармония.

Abstract: The article analyzes the use of star-shaped forms in the compositional and artistic solution of the interior of the Imam Al-Bukhari Memorial Complex and Museum. The study examines the similarity of these decorative elements and their artistic expression with the Islamic Museum in Qom, Iran. The article analyzes the symbolic meaning of geometric patterns in Islamic architecture, their role in expressing holiness and divine order, and the aesthetic and philosophical aspects of the two structures based on a scientific approach. As a result, the importance of patterns in architectural composition and their uniqueness in Eastern Islamic art are emphasized.

Keywords: Interactivity, artistic expression, symmetry, compositional similarity, aesthetic harmony.

Kirish

Islom muzeylari ming yillar davomida nafaqat diniy e'tiqod, balki san'at, me'morchilik, ilm-fan va ma'naviy qadriyatlar orqali ham o'ziga xos madaniyat yaratgan. Bu boy merosni

saqlash, o'rganish va keng jamoatchilikka taqdim etishda islom muzeylari muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, har bir mamlakatda faoliyat yuritayotgan islomiy muzeylar nafaqat dini qadriyatlarini, balki shu xalqning milliylik ruhini, urf-odat va tarixiy tafakkurini ham aks ettiradi. Islom muzeylari dizayni va arxitekturasini bo'yicha tadqiqotlar so'nggi yillarda ko'payib bormoqda. Asosan quyidagi adabiyotlarda bu mavzu turli nuqtayi nazarlardan yoritilgan.

Islomiy me'morchilikda naqsh va geometrik shakllar, ayniqsa yulduzsimon tasvirlar chuqur ramziy ma'noga ega. Bu naqshlar orqali me'morlar ilohiy tartib, mukammallik, birlik va cheksizlik g'oyalarini ifoda etishga intilganlar. Imom Al-Buxoriy yodgorlik majmuasi va Eronning Qum shahridagi Islomiy muzey bunga yorqin misol bo'la oladi. Ular zamonaviy islomiy me'morchilikning estetik qoidalariga sodiq qolgan holda, milliy ruh va diniy-falsafiy tamoyillarni uyg'unlashtirgan.

Amaliy tadqiqotlar va muzeylar tahlili: Louvre Abu Dhabi, Qatar Islamic Art Museum, The Museum of Turkish and Islamic Arts (Istanbul), The Aga Khan Museum (Toronto) kabi muzeylar haqida ilmiy maqolalar va kataloglar islom madaniyati va dizayn uyg'unligini o'rganishda muhim manbalardir. Mahalliy manbalar: O'zbekistondagi Islom Sivilizatsiyasi Markazi, Hazrati Imom majmuasi, Buxoro va Samarqanddagi muzeylar dizaynni tahlillarini o'rganishdir.

Ushbu mavzuni o'rganishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan metodlar quyidagilardan iborat: Islomiy muzeylarning mavjud holatini, dizayn elementlarini, arxitektura shakllarini hujjat asosida tahlil qilish. Har bir muzeyning dizayn kontseptsiyasini tavsiflash. Turli mamlakatlardagi islom muzeylarining dizayn uslublarini o'zaro taqqoslash. An'anaviy va zamonaviy yondashuvlar o'rtasidagi farq va o'xshashliklarni aniqlash.

Natijalar va muhokama tahlili. Islom dini turli xalqlarning madaniy hayotiga moslashgan holda rivojlangan. Shuning uchun har bir hududda islomiy me'morchilik va san'at o'ziga xos milliy rang-baranglik kasb etgan. Misol uchun: O'zbekiston islom muzeylarida (masalan, Imom al-Buxoriy majmuasi, Imom Termiziy yodgorligi, Toshkentdagi Islom sivilizatsiyasi markazi) milliy naqshlar, mahalliy tosh o'ymakorligi, gumbazli arxitektura, arabiy yozuvlar bilan uyg'unlashgan holda milliy ruh mujassam etilgan. Eron, Marokash, Turkiya va boshqa musulmon davlatlaridagi muzeylar ham o'z milliy bezaklari va uslublari orqali islomiy san'atga milliy ruh bag'ishlaydi.

Islom muzeylarida Mahalliy ustalar yaratgan Qur'on nusxalari, zargarlik buyumlari, sopol idishlar, milliy to'qimachilik namunalari kabi eksponatlar ko'rsatiladi. Har bir buyumda xalqning qadimiy urf-odatlarini, diniy tasavvurlari va badiiy qarashlari ifodalanadi. Milliylikni ifodalovchi liboslar, hatto diniy marosimlar aks ettirilgan maketlar ham muhim rol o'ynaydi. Milliylik ruhining muzeylarda aks etishi: Yoshlarda tarixiy xotira va dini-ma'naviy g'ururni mustahkamlaydi. Musulmon xalqlarning o'z madaniy yodgorliklarini qadrlashi, o'zligini anglab yetishi uchun zamin yaratadi. Mahalliy ziyoratchilar bilan bir qatorda xorijiy mehmonlarda ham shu xalqning madaniy olamiga bo'lgan qiziqishni oshiradi.

O'zbekistonning eng muhim diniy-ma'naviy obidalaridan biri hisoblangan Imom al-Buxoriy yodgorlik majmuasi — nafaqat buyuk muhaddis olimning xotirasiga hurmat ifodasi, balki Islom madaniyati va ma'naviyatining yuksak namunasi sifatida alohida ahamiyatga ega.

Imom al-Buxoriy memorial muzeyi Chashmai Ayyub maqbarasining sharqiy tomonida 2001-yilda bunyod etilgan. Majmua buxorolik arxitektori Zoyirshoh Qilichevning taqdim etgan loyihasi asosida qurilgan. Bino zamonaviy va qadimgi sharq me'morchiligini o'zida mujassam etgan ikki qavatli maqbara ko'rinishida qad ko'tarilgan. Mahobatli kitob shaklida ishlangan minoraning ikki tomonidagi pillapoyalardan ko'tarilib Imom al-Buxoriy dafn qilingan, Samarqanddagi qabridan keltirilgan tuproq ustiga qo'yilgan sharqona ko'k gumbaz yoniga chiqiladi. Ramziy ma'no kasb etuvchi Kitobni nurlantirib turgandek, gumbaz o'zgacha bir tarovat kasb etgan. Kitob va gumbazni ichiga olgan yarim-oy shaklida qurilgan binoning ikkinchi qavatida old tomoni zamonaviy oynakori qilinib, kirish eshigi o'rtadan qo'yilgan[3.96.].

Mazkur yodgorlik majmuasi tarkibida joylashgan muzeyning me'moriy yechimi chuqur ramziy ma'noga ega bo'lib, islomiy tafakkur, ilm va nur timsoliga aylangan. Muzey binosi tashqi

ko‘rinishidan ochiq Hadis kitobi va yarim oy shaklida barpo etilgani diqqatga sazovordir. Bu shakllar tasodifan tanlanmagan, balki ularda chuqur falsafiy mazmun mujassam: Ochiq Hadis kitobi – bu Imom al-Buxoriyning asarlari, xususan, “Al-Jome’ as-Sahih” kabi islom ilm-fanining bebaho durdonalarini anglatadi. Kitob shaklidagi bino — ilmning ochiqligi, hadis ilmining porlashi va bu bilimlarning butun insoniyatga ochiq ekani g‘oyasini ifodalaydi. Bu orqali Imom al-Buxoriyning o‘z hayotini ilmga bag‘ishlagani, sahih hadislarni jamlab, ularni avlodlarga yetkazgani yodga olinadi. Yarim oy – Islom dinining timsoli sifatida keng tarqalgan ramzlardan biri bo‘lib, bu shakl diniy nur, ruhiy uyg‘onish va mo‘tadil islom tamaddunining yangilanishini bildiradi.




Imom Al-Buxoriy yodgorlik majmuasi-muzeyi

Muzeyning yarim oy shaklidagi me‘moriy yechimi diniy qadriyatlar va zamonaviylik o‘rtasidagi uyg‘unlikni aks ettiradi. Bu ramziy shakllar orqali muzey nafaqat tarixiy yodgorlik sifatida, balki islom ma‘rifati va estetikasi uyg‘unligining zamonaviy namunasi sifatida ham xizmat qilmoqda. Ayniqsa, yosh avlod uchun bu majmua o‘zida diniy bilimlar, tarixiy xotira va milliy g‘ururni uyg‘otuvchi maskan bo‘lib xizmat qiladi. Imom al-Buxoriy yodgorlik majmuasi va muzeyining bunday o‘ziga xos me‘moriy yechimi, uning ma‘naviy ahamiyatini yanada oshirib, uni zamonaviy islomiy arxitektura namunasi sifatida ajratib turadi. Bu yerda tarix, ilm va ruhiyat uyg‘unlashgan bo‘lib, har bir tashrif buyurgan mehmonni chuqur tafakkur va ilohiy xotiraga chorlaydi.

Muzey yirik ikki bo‘limdan iborat bo‘lib, birinchi bo‘lim Markaziy Osiyoda Islom madaniyati (IX—XII asrlar) ga bag‘ishlangan. Bo‘limning to‘g‘risida binoning yuqori qismida Imom al-Buxoriyning safar xaritasi keltirilgan. Bo‘lim o‘n olti kichik qismdan iborat bo‘lib, Imom al-Buxoriyning zamondoshlari va keyingi IX—XI asrlarda yashagan buyuk allomalar va ularning hayoti va ijodi haqida har bir bo‘lim bitta allomaga bag‘ishlanib namoyish etiladi. Shu zalning keyingi bo‘limlari IX—XI asrlarda islom dini, arxeologiya, arxitektura, uy ro‘zg‘or buyumlari, o‘sha davrda qurilgan tarixiy obidalar qurilishi, xaritasi, yog‘och o‘ymakorligi, kulolchilik kabi ashyolarni o‘zida mujassam etgan bo‘limlardan iborat. Ikkinchi bo‘lim, faqat Imom al-Buxoriyga bag‘ishlangan bo‘lib, uning hayoti va faoliyatini to‘liq yoritib beruvchi uch tilda yozilgan annotatsiya, devorda esa ilintirilib tug‘ilganidan boshlab, bosib o‘tgan hayot yo‘li ketma-ketlikda davrma-davr berilib, kelib chiqishi poykentlik bo‘lgani uchun Poykent tarixi va xaritasi, o‘sha davr Buxoro tarixi va islom dini, keyingilarida unga qo‘shimcha ravishda o‘sha davr muhiti va sharoiti, Movarounnahrda hukmronlik qilayotgan Somoniylar davlati va uning shaharlari, savdo aloqalari yoritilib beriladi. Shuningdek bu zaldagi vitrinalarda allomaning asarlariga yozilgan sharhlar, allomaning Samarqanddagi qabri maketi, hamda o‘sha davr etnografiyasini namoyon etgan eksponatlar ekspozitsiya namoyishiga qo‘yilgan [4.223].

Yulduzli shakllar islomiy san’atda va me‘morchilikda muhim o‘rin tutadi. Yaratuvchilik va cheksizlik g‘oyasini ifodalaydi, simmetriya va mukammallik orqali ruhiy uyg‘unlikni aks ettiradi, Qur’oni karimda va hadislarda tilga olingan osmon jismlariga ramziy ishora sifatida qabul qilinadi.



Imom Al-Buxoriy yodgorlik majmuasi

Imom Al-Buxoriy majmuasida ushbu yulduzli shakllar mozaika, ganch o'ymakorligi va gumbaz ichki bezaklarida keng qo'llanilgan. Bu shakllar me'moriy birlik, baraka, ilohiy nur timsoli sifatida tasvirlangan.

Qumdagi Islomiy muzeyda ham xuddi shunday yulduzsimon geometrik naqshlar mavjud. Ayniqsa, bu muzeyning ichki devorlari va shiftlarida ko'plab murakkab yulduz shaklidagi naqshlar foydalanilgan bo'lib, ular Eron islomiy san'atiga xos bo'lgan "girihi" naqshlar tizimiga asoslanadi.

Kompozitsion yechimdagi o'xshashliklar tahlil etilganda, Har ikkala inshootda ham markaziy gumbazli zal asosiy tuzilma sifatida ajralib turadi. Bu markaziylik – diqqat markazi va ruhiy markazni bildiradi. Ichki makonda geometrik uyg'unlik mujassamlashganligi naqshlar

orqali kompozitsion uyg'unlik

yaratilgan,

Eronning Qum shahrida islom san'ati

bu muzeyi esa ziyoratchilar va mehmonlarga ruhiy osoyishtalik baxsh etadi.


Nurdan foydalanish har ikkala majmua ichki makonida tabiiy yorug'likni tushirishga alohida e'tibor qaratilgan, ayniqsa shiftlardagi panjara (mashrabiya bu arab arxitekturasining elementi bo'lib, derazalarni, balkonlarni tashqi tomondan qoplaydigan yoki bino ichida alohida bo'lim sifatida ishlatiladigan naqshli



yog'och panjara. Arab dunyosida keng tarqalgan yana bir atama bu Roshan (Rushan, Ravashin) bo'lib, Qizil dengizdagi Jidda va Zavakin kabi port shaharlarining savdo uylaridagi derazalariga ham tegishli. Turkiyada ular Mushrefiye, Iroqda Shanashil, Suriyada Koshke va Tunisda Gannariya deb ataladi [5.]) elementlari yulduz shaklida ishlangan bo'lib, yorug'lik o'yinlarini yuzaga keltiradi. Madaniy va diniy ramziy qatlam Imom Al-Buxoriy majmuasi O'zbek islomiy madaniyati va hadis ilmidagi buyuk allomaning xotirasiga bag'ishlangan. Uning me'moriy shakllari milliylik va islomiylikni uyg'unlashtiradi.

Yulduzsimon shakllarning badiiy-ma'naviy mohiyati shundaki Islom san'atida murakkab yulduzsimon shakllar asosan osmon jismiga ramziy ishora etilib Ilohiy nurning timsoli ramzida ko'rinib, cheksizlik va mukammallik ramzi sifatida talqin qilinadi. Ushbu naqshlar Qur'oni karimdagi "Samoviy tartib" tushunchasi bilan bog'liq bo'lib, ko'pincha me'moriy bezak, shift, devor, mozaika va vitraj elementlarida mujassam etiladi.

Qum shahridagi Islomiy muzeyda yulduzsimon naqshlar Eronning diniy markazi bo'lmish Qum shahrida joylashgan Islomiy muzey – markaziy ekspozitsiya makoni hisoblanadi. Uning ichki badiiy yechimi quyidagi jihatlarida Imom Al-Buxoriy majmuasiga o'xshash: Shiftlarda girih naqshlari asosida yaratilgan yulduzsimon bezaklar mavjud. Yorug'lik tushirilgan vitrajlarda ham yulduzsimon geometriya asosiy naqsh sifatida tanlangan. Devoriy panellar va minbar atrofidagi bezaklarda Eron uslubidagi mukammal yulduz shakllari bilan boyitilgan.



Eronning Qum shahrida islom san'ati muzeyi loyihasi

Muzeyning arxitekturasini Eronning an'anaviy me'morchilik uslublaridan ilhomlangan bo'lsa-da, zamonaviy texnologiyalar va dizayn elementlarini o'z ichiga oladi. Arxitektura loyihasi ko'plab o'ziga xos elementlarga ega bo'lib, islomiy uslubdagi bezaklar, arabeska naqshlari, geometrik shakllar va kalligrafik kompozitsiyalarni o'zida mujassamlashtiradi. Muzey binosi shaharning tarixiy manzarasiga mos keladigan tarzda qurilishi rejalashtirilgan. Qurilish jarayonida Eronning mashhur me'moriy elementlari, masalan, kupol shakllari, minora va ochiq hovlilar keng qo'llaniladi. Muzeyning ichki qismida, shuningdek, ilmiy va ko'rgazmalar zallarida yuqori sifatli yoritish va interaktiv texnologiyalar yordamida eksponatlar namoyish etiladi. Eronning Qum shahrida islom san'ati muzeyi loyihasi Sankt-Peterburgda o'tkazilayotgan "Oltin Trezzini" uchinchi xalqaro arxitektura va dizayn tanlovining "Muzeyning eng yaxshi me'moriy loyihasi" nominatsiyasida g'oliblik uchun kurashadi. Loyiha Eronning Rawagh Studio byurosi tomonidan arxitektor Mohsen Parisi rahbarligida ishlab chiqilgan. Mualliflarning fikricha, muzeyning fasad yechimlari va interyerlarida islom san'atining asosiy tamoyillari mujassamlashtirilgan. Islom san'ati estetikasining asosiy unsurlari yorug'lik, suv va rang bo'lib, hikmat timsoli bo'lgan yorug'lik hukmronlik qiladi. Muzey loyihasida derazalar katta ahamiyatga ega - ular etarli darajada tabiiy yorug'lik kiritishlari kerak, shu bilan birga tashrif buyuruvchilarni ichki bezatish va muzey kolleksiyasidan chalg'itmasliklari kerak.

Kompozitsion o'xshashliklar va estetik uyg'unlik

Kompozitsion element	Imom Al-Buxoriy majmuasi	Qumdagi Islomiy muzey
Markazlashtirilgan reja	Ha	Ha
Gumbazli asosiy zal	Bor	Bor
Yulduzsimon naqshlar	Shift, devor, zamin	Shift, devor, vitraj
Yorug'lik o'yinlari	Panjarali ganch elementlar orqali	Vitrajlar orqali
Ramziy ma'no	Ilohiy tartib va nur	Ilohiy hikmat va birlik

Xulosa

Imom Al-Buxoriy yodgorlik majmuasi hamda Eronning Qum shahridagi Islomiy muzey misolida olib borilgan tahliliy tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, islomiy me'morchilikda geometrik naqshlar, xususan yulduzsimon shakllar, nafaqat bezak vazifasini bajaradi, balki muhim ramziy-falsafiy mazmun yuklaydi. Har ikki inshootda bu naqshlar muqaddaslik, ilohiy tartib, hamda kosmik uyg'unlik g'oyalarining me'moriy ifodasi sifatida talqin qilinadi.

Tadqiqot shuni tasdiqlaydiki, mazkur muzeylarda yulduzsimon naqshlar orqali me'moriy makonlar nafaqat estetik joziba kasb etgan, balki ularning ichki tuzilmasida ma'naviy-mafkuraviy mazmun mujassam etilgan. Imom Al-Buxoriy majmuasidagi kompozitsion yechimlar — an'anaviy islomiy naqsh san'ati va zamonaviy arxitektura uyg'unligini ifodalaydi. Qumdagi Islomiy muzey esa o'xshash uslubda shakllantirilgan naqshlar orqali islomiy san'atda davomiylik, mantiqiy tartib va ruhiy tafakkurni ta'kidlaydi.

Shu tariqa, mazkur ikki muzey namunasi orqali islomiy me'morchilikda naqsh elementlari estetik vosita bo'lishi barobarida, chuqur ramziy va ma'rifiy yuklama hamga ega ekani ilmiy asosda tasdiqlandi. Bu esa Sharq islomiy san'ati va me'morchiligida naqsh san'atining g'oyaviy-falsafiy o'rnini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 5 martda qabul qilingan «Muzeylar faoliyatini tubdan qo'llab-quvvatlash masalalari to'g'risida»gi qarori // Xalq so'zi, 1998 yil 15 mart.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 23 iyundagi PQ-3080-son qarori.
3. Арсланова Ф, Алиев Р. Музеи древней Бухары (ўзбек, рус ва инглиз тилларида). Бухоро нашриёти: Бухоро, 2015 — 96-bet.
4. Ernazarov E. Buxoro davlat me'moriy-badiiy muzey-qo'riqxonasi (ўзбек, рус ва инглиз тилларида). SM Print: Toshkent, 2004 — 223-bet.
5. Musharabi Ensiklopedicheskiy slovar Brokgauza i Yefrona : v 86 t. (82 t. i 4 dop.). — SPb., 1890—1907.
6. Ключевые понятия музеологии / Сост. Andre Desvallees и Francois Mairesse. — ИКОМ России, 2012. — 105 с.
7. Постановление заседания научного совета “Центра исламской цивилизации” протокол № 12 от 11.04.2025 Техническое задание на создание аудиовизуального произведения для постоянного видеопроекционного шоу/инсталляции на фасаде здания.
8. Музей ва жамият. Ж.Х.Исмоилова, К.С.Нишонов, М.С.Мухамедова. Т.2015. 106 б.
9. Saipova Dilnoza Shakasimovna Trends and solutions: Innovations in museum spaces International journal of artificial intelligence ISSN: 2692-5206, Impact Factor: 12,23 American Academic publishers, volume 05, issue 03,2025 1501p
10. 2022. Махмудова М.Т. «Дизайн» феномен художественной культуры XXI века. Проблемы архитектуры и строительства. СамГАСИ. Журнал №4.
11. 2014. Уилкинсон Ф. Архитектура. 50 идей, о которых нужно знать. Изд. Фантом Пресс. М. Пер. с англ. Ш.Мартыновой.
12. Mannapova N. R., Saidyusupova M. F. ART SCHOOLSAT THE Composition and color solutions //Scientific progress. — 2021. — Т. 2. — №. 6. — С. 1919-1921.
13. Kasimov O. S. Miguel A. A. теория и практика современной науки теория и практика современной науки учредители: ооо" институт управления и социально-экономического развития". — №. 10. — С. 24-31.
14. <https://worldarchitecture.org/architecture-news/>